

Sherjon og'ir eshiklarni "sharaq-shuruq" B ochib ichkariga kirdi. Ko'pdan odam yashamagan uyda burniga allaqanday quruq, qabristonlarni isiga o'xshab ketadigan hid urildi. Bu yerdagi kimsasilik bir qarashda qo'rqinchli bo'lib tuyulardi. Aslida keyingi paytlarda bog'cha va nonvoyxonalarda qorovul bo'lib ishlayotgani uchun ko'nikib ketgan bo'lsa-da, negadir yuragi g'ash bo'laverardi. Bu uning odamlarga va mehr-oqibatga nisbatan ehtiyojini bildirsa, yana umrining allaqanday katta bir bo'lagini yashalmayotganday his qilardi. Negaki haftaning to'rt kechasi va kunduzi ishda bo'lsa, ikki kuni uyda o'tkazardi. Har safar ishdaligida sukunat olamida ko'p vaqtini derazaga qarab hayol surish bilan o'tkazadi. Zerikkanda kirib chiqadi, uy anjomlarini bir-bir silab, nimalarnidir g'o'ldiraydi. Uyga borsam uni qilaman buni qilaman deb rajalasa-da, so'ng hayollari osmonga uchardi. Eshikdan kirishi bilan og'ir hayotdan bezgan, turmushning yetar-etmasliklari va bolalarining so'ngsiz urush-janjallaridan xorigan xotiniga ko'zi tushardi. "Emin maktabning derazasini sindiribdi". "Otash ichib borgani uchun ishdan haydaldi". Birdan qora xabarlar oqimi gangitib qo'yadi. Ichkariga kirib yechinmasidan tugmalarini bo'shatadi. Nazarida bo'g'ilib qolayotganga o'xshardi. Sherjon sukunat saltanatida o'ylardi: "Boshqalarning hayoti qanday ekan. Umuman dunyoda baxtli odam bormikan? ...Baxt degani nima o'zi?" Qishloqda yashab hali uylanmagan kezlari baxt haqidagi tasavvurlari boshqacha edi. Ovqat solingan yelim idishini va nonini qo'yib bir oz serrayib turdi. Ikkinchi qavatni aylanib chiqish lozimligini erinib o'yladi. Zinapoyalar baland-baland, xonalar katta-katta, boshidan oxiriga yetguncha odam albatta charchab qoladi. Buning ustiga ko'ngilsiz yumushni har kun bajaraversa, tez orada joniga ham tegib qolarkan. Kecha bog'chada navbatdaligida quvur yorilib ketib yarim kechagacha uxlolmagan, shuning uchunmi hozir boshi bir oz aylanib turardi. Istamaygina eski kovushi bilan zinalarni bir-bir bosib yuqoriga o'rmaladi va yarmiga chiqib pastga qaradi. Garchand hovlini chang bosib yotgan bo'lsa-da, qimmatbaho yog'och va marmar koshinlar bilan ta'mirlanib, lak surilgani uchun juda chiroyli ko'rinardi. Bu manzarani oltmishlarga borib qolgan Sherjon uch yildan beri ko'rayotgani uchun og'ir "uh" B tortib yana yuqoriladi. Yuqoriga ko'tarilgani sayin isib borardi. Hamma issiq havo tepaga o'rmalar ekan. U oyoqlarini sudragan kuyi pollarni "jiqir-jiqir" bosib xonalarga bir-bir kirib chiqdi. Katta zalning pardalarini surib oynachasini ochib yubordi. Tashqaridagi toza havo ichkarining rutubatini surib ketdi. O'ralgan gilamlar, yelim qag'oz yopilgan mebellar kelganidan beri shunday turardi. Imillab yurib, kir-chir bosgan qo'pol qo'llari bilan devorni va eshikni ushlaganicha qo'shni xonaga o'tdi. Yana pardalar surildi, toza havo kirdi. Burchakda o'rgimchak to'ri paydo bo'libdi. Uy egasi kelsa yana vaysashi tayin. Xonaga bir qur ko'z yugurtirdi, shildiroq qag'oz bilan yopilgan qimmatbaho yotoq divanlari, toshoy-nalar, yumshoq kreslolarni chang bosib yotardi. Kimningdir tug'ilgan kunida sovg'a etilgan katta guldasta qo'rib qolgan. Derazadan tushgan yorug'da chang zarralari uzun tasmada o'ynab yurardi. Changdan aksa urdi. B "Ahmoq". Bu gapni Sherjon uch yildan beri, aynan shu yerga kelganda ya'ni uyni qoravullayotgan bo'lsa, har kun aytadi. Demak shu o'tgan vaqt maboynida "ahmoq" so'zini sal kam bir million marotaba takrorlagan ekan. O'zi uch xonali uyda bolalari va kelini bilan tiqilib yashayotgani uchun bo'm-bo'sh xonalarni ko'rishi bilan asabiylasha boshlardi. Uy egasining katta xotini shahardagi uyini, qolaversa erini qizg'anib sira ko'chib kelmas va sotishga ham yo'l qo'ymas edi. Sherjonning nazarida qari xotin ko'chib kelib mazza qilib bog'chali uyda yashashi kerak edi.

Ana uyning ayvonchasidan Xumson toglari ko'rinib turibdi. Yonbag'irlarni yozda ko'm-ko'k archalar qoplaydi. Suvlar sharqirab oqadi. Tonglarda qo'y-qo'zilarning "ma'ragani", qushlar sayroqi shu yergacha eshitiladi. Qishning oxirlari bo'lsada tog'lar oppoq po'stin kiygan edi. "Bunday jannat joylarni qaydan topadi. Aqlsiz xotin. Xudo ham shu beqadrlarning peshonasiga uy beradi. Kim zor bo'ladi, kim xor qiladi". Polni "dup-dup" bosib oyog'ini sudraginicha yana boshqa xonalarni aylanib chiqdi. Uning allanima deb gapirgani va so'kingani eshitiladi. Uyning tog'larga qaragan ayvoniga chiqdi. Ko'kragini to'latib nafas oldi. Atrofga qarab ko'zlari quvonib ketdi. Janub tamondan bahorning ilk elchilari ko'm-ko'k maysalar ko'rinar va allaqanday bahorgi qo'shlar B "chirq-chirq" etib qanot qoqishadi. "Xudoga shukur". U hamisha hamma narsani o'z istaklariga qarab o'lchar va shu g'arib hayotiga shukrona aytardi.

"Bahor ham kelibdi". Aynan shu fikr o'limni esiga soldi. Bir kun bularni tashlab ketadi. Ilgarilari yoshi qirq, elliklarda ekanligida o'lim haqida o'ylashga qo'rqmasdi. "Bir boshga bir o'lim" derdi ichib kelgan vaqtlarida stolni mushtlab. U davrlar ham bir zumda o'tdi ketdi. Qishli qirovli kasalliklar va muammolarga to'la qarilik davri yetib keldi. Sherjonning hayoti birdan yo'ldan, to'g'ri borayotgan yo'nalishdan chiqib kataklarga aylandi. Negaki u endi yanglishib ketmasligi uchun qachon qaerga borishini haftaning sariq va qizil kataklariga bo'lib qo'ygan edi. Yaqindan beri haftada yetti kun bo'lsa, besh kuni bo'yaladigan bo'lgan edi. Ilgarilari biror joyga ishga borsa qishning uzun kunlari zerikib uyqusi qochardi. Tun bo'yi bolalarning yoki xotinini o'ylayverib boshi og'rib ketardi. Yaqindan beri bir narsani sezib qolgan edi. Uydagilar buning uyda bo'lmasligiga o'rganib qolishganmi, u televizorning qarshisiga cho'zilishi bilan bir-bir chiqib ketishardi. Hatto xotini ham biron joyini og'rganini bahona qilib ertadan yotib olardi. (Buyumlar onasi, xotini va bolalariga aylanadi.) Endi shunday yashashga o'rganib qoldi. Devorga suyangan ko'yi atrofni kuzatdi. Daraxtlarning kurtaklari bo'rta boshlabdi. Hokimning uyida allaqachon bahorga tayyorgarlik ko'rilib, sariq rangli xizmat libosi kiygan erkaklar bir narsalarni ko'tarib kirib chiqib yurishardi.

- Salom Sherjon aka, - degan ovoz eshitildi.

- Salom, salom Sherjon xursand bo'lib.

Va darrov o'zini ichkariga olishni mo'ljalladi. Chunki bugun u narsaning daragi yo'q. Qo'shni yigit bilan bog'chadan yoki bu yerda oylik olgan kunlari uchrashib turishardi. Sherjon u zormandani avaylabgina sumkasiga berkitib olib kelardi. Qo'shni yigit bir kosa ovqat yoki sovuq gazaklar olib chiqardi. Sherjon har gal uning ismini so'rar va shu zahoti unutilib yuborardi. O'shanday paytlarda eng bahtiyor odamga aylanardi.

- Shanba kuni bir o'tiramiz Sherjon aka. U kuni bu yerdamisiz axir.

Qoravul yuqorida turib bosh silkiydi. Qo'li bilan bir narsalarni ishora qiladi.

- Ertalabdan xotinim qarindoshinikiga to'yga ketadi. Yegulik hamma narsa bo'ladi. Somsami, norinmi nima narsa qilsa shundan olib qolaman. Anov kuni bir shisha op kelib yashirib qo'ydim.

- Himm... - deydi Sherjon iljaygan bo'lib, sap-sariq, balki umrida tozalanmagan tishlarini ko'rsatib.

Qo'shni yigit ham yillar davomida u bilan otamlashib o'rganib qolgani uchun sharpaday bir zumda g'oyib bo'lib qolgan qoravulning izidan befarq qarab qo'yadi. Sherjon imillagan kuyi Yana yo'lida davom etadi. Hammomning chirog'ini yoqib anqayadi. Qimmatbaho koshinlar yaraqlab ketadi. U odaticha vanna jumragini buramoqchi bo'ladi. Birdan qo'lini tortib olib engashib qaraydi. Vanna tubida bir qarch va nozik ilonning bolasi "iloncha" yotardi. "O'yinchoqmikan. Qachon tushdi ekan bu yerga". Tish cho'tkasi bilan turtib ko'rmoqchi bo'ladi. Iloncha bilanglab siliq vannada sirg'alib tushadi. "Voy jinni kirib olgan joyini. Onang qani seni. Chanqadingmi.". Jo'mrakni buraydi, shovullab suv oqadi. U bir zum suvda sirg'alib sudralayotgan ilonchani kuzatib turadi. Yana jo'mrakni berkitib chiqib ketadi. Uyda hech kim bo'lmagani bilan sira cho'milishni odat qilmagandi.

Nazarida vannada cho'milishga kirsa, birov eshik qo'ng'irog'ini bosadiganday yoki uy egalari kirib keladiganday. "Sasib ketibsiz" deydi xotini. Uning adashib tunda hujum qilib qolishini oldini olib. Bu yerga kelishi va hammomni ko'rishi bilan "mazza qilib cho'milib olaman".

Pastga tushadi, ovqatlanadi. Hamisha sumkasida olib yuradigan shapaloqday radiosi muruvvatini "shig'illatib" buraydi. "Amerika shtatlarida suv toshqinlari davom etmoqda" deydi diktor. Amerika juda uzoq bo'lsa ham hamma yangiliklarni e'tibor bilan tinglaydi Sherjon. "Ha shuncha rivojlangan mamlakat bo'lsa ham foydasi yo'q ekan". B "Taqa-tuq" nazrida dunyoni shovqin-suron qamraydi. "Rep musiqa muhlislari uchun... marhamat". Cho'chib ketib yana buraydi. "Reping bilan har narsa bo'l". "Shig'-shig'" xonani nay navolari va g'amli bir ovoz qoplaydi. Yaqindan beri Sherjon og'ir musiqalarini eshitolmaydigan bo'lib qolgan. Yuragi siqilib o'n besh yillardan beri ko'rmayotgan onasi va yaqinlarini eslaydi. Yana buraydi. Navqiron shirador bir ovoz yangraydi. "Do'stdan yaxshi yor bo'lmas". Allaqaerlarda ruscha kuylashadi. Qandaydir odam tushunib bo'lmaydigan tilda qo'shiq aytadi. U bunday qo'shiqlarni negadir negrlar ijro qilsa kerak deb o'ylardi. "Shig'-shig'". Yana yoqimli ovoz yangradi. B "Uff..." Qo'shiq Sherjonning uzun umri davomida qotib qolgan yurak torlarini chertar, har kun har safar qo'shiqni eshitar ekan, yuragida allaqanday unutilib ketgan tuyg'ular, xotiralar paydo bo'lardi. Ba'zan bularning nomini nimaligini bilmasa, qo'shiqni eshitishi bilan yayrab ketardi.

Ba'zan ichib olgan kezlari Xonzoda E'zozning qo'shiqlarini eshitib ko'zlarini yumib yotaverardi. O'shanday paytlarda undan baxtli odam yo'q. Uniing qalbidagi intilishning, shirin hayollarga berilishi birovni suyish, muhabbat deb bo'lmasdi. Sherjon Xonzodaning shirali sasini eshitishi bilan: ko'z oldiga uning go'zal chehrasi, chiroyli kiyimlari va turli hashamatdor taqinchoqlari kelib yuragi orziqib ketardi. Ichib olgan kezlari shayton hayollariga berilardi. Xonzodani yalong'och holatda o'z quchog'ida tasavvur etadi. "Voy-bu uyingiz katta ekan. Men sizni kichkina odam desam siz katta dam ekansiz deydi. Lekin uyingiz sovuq ekan, sovuq qotib ketyapmanB". Shunda u bir oz uylanib turib xo'jayining vannaxonada osilib turadigan paxmoq halatini keltirib beradi. Ichidan ishqilib bironasi kelib qolmasin deb o'ylaydi. Anov qanday surat?. Otga qiziqasizmi, menga ham ot yoqadi. Qaysi rassomning ishi bu? Sherjon bir narsalar deb g'o'ng'illagan bo'ladi. Rassomlarni qaerdan ham eshitibdi u. Birdan cho'chib ketadi. Choy vaqirlab qaynab to'kilayotgan ekan. Ro'yo hayollari bir zumda tarqab ketadi.

Atrofdagi uni o'rab turgan borliq ko'ziga baloday ko'rindi. Ming yildan beri ko'tarib yurgan to'rxaltasi, shisha bankaga solingan qovurilgan kortoshka va yarim non Sherjonning kechki ovqati edi. "Ko'p yemang semirib ketasiz. Kasal topasiz" derdi xotini. Aslida ovqatni tejayotganini yaxshi bilardi. To'g'ri yeyish-ichishida ma'no bo'lmasada lekin u shu yerda ovqat yeyishni yoqtirardi. Tinchgina, hotini harhasha qilmaydi. Bolalari asabiga tegmaydi. Musiqa yangrab turadi, yolg'iz o'zi...oh maza. Ko'zi chang bosib yotgan telefonga tushadi. Sherjon olislardagi kampir onasi haqida o'ylaydi. Onasi qarib ham qolgandir. Telefonda gaplasholarmikan. Bu telefon ishlayotanmikan o'zi, keyingi paytlarda jiringlamay ham qo'ydi. "Vongg" deb ovoz chiqaradi trubka. Ishlayotgan ekan deydi, go'yo telefonning ishlayotganidan hafa bo'lib. Endi yana azobli o'ylari davom etadi. Telefonni ko'rishi bilan onasiga telefon qilishi kerakligini o'ylaydi. Ishonmassiz u o'n yildan beri telefonni ko'rsa onasi esiga tushadi. Lekin negadir har gal paysalga soladi. Onasi xorijiy bir mamlaktda yashagani uchun telefon haqining qimmatligidan qo'rqadi. "Uff..." Imillab o'rnidan turadi-da, stol ostida turgan titilib ketgan jurnalni balki uch yuzinchi, balki besh yuz yigirmanchi marotaba varaqlaydi. Muqova so'nggida Xonzodaning yashil libosli, turli taqinchoqlar taqqan rangli rasmi ko'rinadi. Uning ko'ziga yaqin qoshlari allaqanday sovuq kibr bilan tikiladi. Yana o'sha nigohlarda allaqanday sirni, jumboqmi yashirinday, beixtiyor odam juda uzoq tikilib qoldi. Sherjon ushbu suratga soatlab tikilib o'tiradi. Uni izlab topish haqida orzu ham qilmaydi. Negaki u na boy va na yosh kelishgan yigit. Shuning uchun qo'shiqlarini eshitib ovunadi. Har kun ne-ne hayollarga bormaydi. Endi o'ylab qarasa, bu yerga shu xotin haqida xayol surish uchun ham kelar ekan. Bu yerda xotini qulog'ida tinmay vaysamaydi. Nazarida shu narsa uning hayotining mazmuniga aylanganga o'xshaydi. Odatda o'zga tilda gapiradiganlar negr bo'lsa kerak deb o'ylardi.

Yotgan joyida kiyimlari bilan uxlab qoladi. O'zining dangasaligini oqlash uchun keyingi gal cho'milaman, hozir bir oz shamollaganman deydi. Yana tong otadi. Oxiri bu istaklar ham ozor bermaydigan bo'ldi. Chumilmaslikka ham ko'nikib ketadi. Tashqarida mashina ovozi eshilib darvoza taqillaganday bo'ladi. Yuzini yuvayotganda boshini va bo'ynini yuvgan bo'ladi. Sochi olingan taqir boshini, bo'ynini sochiq bilan arta-arta yo'taladi. B "Hozir...ho". Eski kalishini oyog'iga ilib yugurgilaydi. Darvoza oldida qavog'i soliq uy egasi turadi.

- Kun yoyilguncha ham yotadimi odam. Qari odamlarning o'yqusi kam deyishadi. Siz uyquga yotgan ipak qurtiga o'xshaysiz.

Mang? - qo'lidagi paketni tutqazib qorovulni chetlab o'tadi.

Elliklardan oshgan uy egasi viqor bilan ichkariga yurdi. Aftidan xotinlarining biri bilan urishgan, shuning uchun vaqtili kelibdi.

- Ikkinchi qavatdan suv oqmayaptimi?.

- Suv yo'q, - qaysi suv haqida so'rayotganini tushunolmay. Uy egasi olib kelgan paketga yutunib qarab qo'yadi. Iloncha bor deb yuboradi.

- Qanaqa ilon uy egasi to'xtab sinchkov tikiladi. Qoravulga yolg'izlikda jinni-pinni bo'lib qolmabdimi deb shubha bilan qaraydi. Beixtiyor boshini ko'tarib ikkinchi qavat tomonga quloq soladi.

- Ilonni bolasi vannada...

- Iya, - uy egasi norozi holatda shu vaqtning o'zida erinib yuqoriga o'rimalaydi. Sherjon ergashadi. Vannada ilon nima qiladi. Siz ko'chadan olib kirdingizmi yo'?

- Shunga hayronman, - g'o'ng'illaydi Olim.

Ikkalasi birin-ketin vannaga kiradi. Chiroq yonishi bilan sutrang koshinlar yarqarib ketadi.

- Qaerda ilon? - deydi u plastik sholchalarni zardali ko'tarib ko'rib.

- Ertalab shu yerda edi. onang qani dedim.

Ho'jayin angrayib taqir bosh, yuzi ajinlardan iborat oltimishdan oshgan qoravulga qaraydi. "Tomi ketibdi". Ikkalasingning orasidagi uzun sukut chirsillab uzilib ketganday bo'ladi. Allanarsalarni so'kingan kuyi tashqariga yo'nalgan uy egasi Sherjonni turtib ketayozdi. "Ilonlar qaerda ekan. O'rmalab devordagi portretlarga kirib rasmga aylanganmikan?". Demak chanqab portretndan tushgan bo'lsa kerak. Yo'lakdan uning "...ni yopdingizmi" degan sasi eshitaladi. Sherjon katta zalniing o'rtasida qaqqayib turadi. Devordagi noma'lum balandlikka sakrayotgan tulporlar suratlarini barmog'i bilan artib ko'rayotgan xo'jayinni kuzatadi.

- Aka, bularni yopib qo'ying degan edim-ku, sizga. Mana hammasi oftobda oqarib yotibdi. Bu besh ming yevrolik narsa bo'lsa Sherjonning nigohi kumushrang otlarda otib qoladi. Bolaligida qishlog'ida kun bo'yi ot minib yurishardi. Shovot degan kanalda ot bilan birga cho'milishardi. U paytlarda juda yosh bo'lgan onasi qo'lida tol hivchini bilan uni izlab yurardi. "Uyga Kir, hozir otang keladi".

Devorning allaqaeriga berkinib olgan chigirtka "chirillab" qo'yadi. Hokiminig hovlisidagi yopiq basseynida bolalar baqirishib cho'milishadi. Kimningdir qarg'agani eshitaladi. Aftidan qo'shni bozorga non olib ketayotgan o'g'lini qarg'ardi: "og'zingdan qoning kelgur nega to'kasan nonni"

- Oldingi hafta och degandingiz-ku ming'irlyaydi Sherjon va choyim sovub qolmadimikan deb o'ylaydi.

- Kecha ichmaganmidingiz. Xayolingiz qaerda. Oldingi hafta ochgan bo'lsangiz endi yopishingiz kerak. Bularni vaqti vaqti bilan shamollatib turish kerak. Maboda biron parazitlari bo'lsa quyoshda o'ladi. Mashhur portretlarni ham vaqt bevaqt ko'rgazmaga qo'yishlari ham shundan bo'lsa kerak. E, aytishim shartmi, o'zingizdan bilavermaysizmi?.

U nima deb javob qaytarishni bilmaydi. Derazaga ko'z tashlaydi. Uni ham ochish kerakmidi, yoki yopish...

Xo'jayin bir xo'mrayib boshdan oyoq qaraydi. "Qarib qolibdi almashtirish kerak". Kimga almashtirish haqida bosh qotirmaydi, negaki u ishlaydigan pulga yoshlarning ishlamasligini u yaxshi biladi. Parket pollarni "jiqir-jiqir" bosib pastga tushib ketadi.

Sherjon ham imillab uning ortidan ergashadi.

- Bog'ni tartibga soling, shanba kuni kelamiz.

Ko'chada allakimlarning ovozi eshilib, so'ngra mashina vag'illab yurib ketadi. Aftidan uy egasi qo'shnilar bilan so'rashdi. Sherjon olisdan o'ljasini ko'zlab rohatlanayotgan burgutday paketga tikilib bordi. Qog'oz haltachaning ostidan allanarsaning yog'i sizib chiqqan edi. Ikkita nonning ustiga turli xil pishiriqlar: shirin kulcha, qizarib pishgan muraboli non va bir qanoti olingan tovuq solingan edi. Sherjon behtiyor jilmaydi. Uy egasi qo'pol va qo'rs odam bo'lgani bilan bir tarafi qo'li ochiq odam edi. U o'g'li ishlayotgan restoranidan turli taniq taomlar olib kelib uni siylab turardi. Tovuuq go'shtlarni paqqos tushirib shirinliklar bilan choy ichayotganda tovuqning bir sonini xotiniga olib qo'yishni o'yladi. Lekin bir zo'm o'tmay fikridan qaydi. Chunki Sherjon uyga bir ikki marta ertaroq borib qolganida kirishi bilan bir taqsimcha ovqatni xontaxaning ostiga olib qo'yishdi. U qo'lii yuvib kelib o'tirganda oldiga bir lagan qovrilgan makaron olib kelib qo'yishdi. Sherjon barcha joylarda qoravullikda yoki usta bo'lib yurganida makaronda rosa ko'ngli qolgan edi. "Bunday ko'ngli tor bularni, haftada uch kun uyda bo'lsa..."

Hali damlab qo'yan choyi tinib hushbo'y bo'lib turgan ekan. Huzur qilib shimirib, yana Xonzodaning rangli suratiga tikildi.

"Xudo haqqi ilgari uning ko'zi qora edi. Hozir esa moviy edi". Ranglarni ham ajratolmayapti. Balki endi ko'zdan ham qolganmikan?.

Nega bo'lmasa yaqindan beri qaerga qarasa ko'ziga Xonzoda E'zoz ko'rinar uning ustiga kiyimlari va ko'zlari moviy edi. Radiodan: "Dunyo bolalarini bugungi bayrami bilan tabriklaymiz. Yaponiyada bugun dengiz kuni, dengiz axir bolalarniki kelajakniki" Ajab dunyoda dengiz kuni ham bor ekan. Uni nimasini nishonlashar ekan. Balki, Shveysariyada osmon kuni, quyosh kuni ham bordir. Lekin uning bir tomoni odamzod bir xil narsani ko'raverib o'rganib qolasan. Balki tinimsiz, beminnat nur sachadigan quyoshga ham e'tibor kerakdir. Axir u nur sochmay qo'ysa nima bo'ladi. Unda Sherjon qishlog'iga bir vaqtlar o'n soatga poedzdada boradigan, endilikda Ittifoq parchalanganidan so'ng u chegaraning bu yog'ida onasi esa u yog'ida qolib ketdi. Sherjonning o'ziga o'xshab orzulari ham g'alati, quyosh bu yerda nur sochmasa u yoqda ham nur sochmaydi-da. "Bizni uchrashtirgan yomg'irga rahmat". Hamma narsadan ham qo'shiq bo'laverar ekan. Eshik cho'zilib cho'zilib jiringlab ketdi. Nazarida devorda osig'liq suratlardagi otlar bir cho'chib ketganday bo'ldi. Uy egasining biron narsasi qolibdi shekilli..."

Obbo, odam boyigan sari injiq bo'lib boraverar ekan. Hech kim kirmasin, hech narsa berma..." Yoki qo'shnilarmikan...Hayollari jonlanadi: Xonzoda E'zoz kelgan bo'lsa-ya Eshikni ochdi ostonada yupun kiyingan ikkita ayol turardi.

- Assalomu-alaykum aka. Sizni yaxshi odam deb oldingizga keldik xotinlarning ko'zlarida allaqanday qayg'u yashirin edi...

- Kelinglar. Nima xizmat? Sherjon xudi o'zini shu koshonaning egasiday xis qilib bir oz kerilgan kuyi.

- Bir telefon qilib olsak bo'ladimi? - yuzlari horg'in bir ayol shunday qarab turardiki, yo'q deb aytinging ilji yo'q edi.

Xotinning yonidagi yoshroq qiz kulib qo'ydi.

Sherjon bir zum o'ylanib qoldi. Yomon xotinlar bo'lsa-chi nariroqda sheriklari berkinib turgan bo'lsa-chi, lekin yomon ayolga o'xshamaydi.

- Faqat shaharlar aro qo'ng'iroq qilmaysizlar dedi bir oz gerdayib.

- O'libmizmi aka. Bilamiz, - dedi yoshi katta xotin.

Ayollar kirib qo'ng'iroq qilishdi. Lekin biror joy bilan gaplashisholmadi.

- Rahmat, bizga kerak odamlar uyida yo'q ekan, - o'rmidan turib ketishga chog'lanishdi.

Yosh qiz bir narsa esidan chiqqanday taqqa to'xtadi.

- Aka, bir kecha yotishga joy bersangiz? shahardan ishga kelgandik.

- Joy? Sherjonning ko'pdan beri mudrab yotgan hayrat tuyg'ulari balqib yuziga chiqdi.

U Yana bir qur ayollarga va atrofga qarab oldi. Birdan hayollari aralash-quralash bo'ldi: mana men deb xo'jayinnig qo'rqinchli yuzi balqib chiqib turdi.

- Biz ishlagan uy egalari yaxshi odamlarga o'xshamadi ayol kelgan tomoniga bir qarab qo'ydi. - Bari erkaklar, bari mast-alast...

- Ammo- u o'zini uy egasi deb bilgani uchun javob berishga chaynalardi. Begona ayollarni kirgizolmayman.

- Xudo xayringizni bersin aka. Biz yomon xotin emasmiz, mana qo'llarimizni qarang yil o'n ikki oy qora ishda ishlayverib, ayolligimizdan nishona qolmagan dedi yoshi kattaroq ayolning ko'zlari jiqqa yoshga to'lib qovarib ketgan qora qo'llarini ko'rsatdi.

- Qo'shnilaringiz joy beraman dedi. Lekin ikkita yosh yigit bor ekan. Apam unamadilar. Hamisha men uchun cho'chiydilar, - dedi yoshgina qiz Olimning hamshishasining uyi tomonga qarab olib.

Hokimning xotini to'yga ketgan edi. "Voy zang'ar darrov xizmatchilarning ko'ngliga boshqa gap kela qolibdi-da".

U o'zini chetga olib manzirat qilgan bo'ldi: "mayli qolinglar". Xotinlar sharpasizgina asta yurib haligi joyga o'tirishdi.

- Bizga o'xshaganlarning yuztasiga ham yetadigan joy bor ekan. Yana kirgizmayman deysiz, - dedi yoshroq qiz qoshlarini chimirib.

Ayol qizning biqiniga turtib imo qilib qo'ydi.

- Shu yerda o'tirsak bo'ladimi yoki boshqa xona bormikan?. Men Oyshagulman, bu Noli...

Sherjon endi xotinlardan rostmona uyaliib, asta stoldagi non burdalari va suyaklarni yig'gan bo'ldi. Yuragida qandaydir notanish tuyg'ular uyg'ondi.

- Qo'ying biz o'zimiz Oyshagul stolni artib oshxonaga yo'naldi. Shu yerdan qo'l yuvsak bo'ladimi?. - Javob kutmasdan suvniing shovullagani eshildi. Yoshrog'i bir zumda pol va mebellarning changini artib chiqdi. Bir zumda hovli tuy-po'y bo'ladiganday yarqirab qoldi. Sherjon choy qo'yan bo'ldi. Qimmatbaho qandilni ham yoqib yubordi. Ust boshini changini qoqdi. Yuvinib chiqmagani uchun o'zini koyidi. Bu yerda tuzukroq kiyimi ham yo'q. Yangi kiyim olmaganiga ikki-uch yil bo'ldi. Tovba, beixiyor

3 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Uzsmart.UZ

SEVER.UZ

Ka4ka.UZ

Original Mp3 To'plami

Kitoblar Olami

Uzsmart.UZ

SEVER.UZ

Ka4ka.UZ

Original Mp3 To'plami

Kitoblar Olami

Uzsmart.UZ

SEVER.UZ

Ka4ka.UZ

Original Mp3 To'plami

Kitoblar Olami

Uzsmart.UZ

SEVER.UZ

Ka4ka.UZ

Original Mp3 To'plami

kiyimlariga e'tibor bera boshlabdi. Xotinlar jimib ketdi. Demak, hammomga kirishibdi. Mayli yuvinib chiqa qolishsin, chang-chungga botib qolishgan ekan. Agar bular ko'rib qolgandami?. Birdan miyasiga garajga yashirib qo'ygan aroq keldi. Dasturxonga olib kelib qo'ysa boshqacha tushunib arazlab ketib qolishsa-chi... Yaxshisi jim o'tirgani yaxshi... Xotinlarning shodon ovozi, kulgulari eshitildi. Sherjonning yuragi orziqib ketdi. Suv shovulladi.

Yoshi kattaroq Xotin uzun qirmizi xalat kiyib olgan edi. Ulardan allaqanday muattar bo'ylar, shampunningmi isi kelardi.

- Bizni yo'qotib qo'ydingizmi?. Noli qani o'zing bir dasturxon tuzab yubor-chi...- uzun sochlarini silkitib. - Sherjon aka yaxshi odam ekanlar.

Mo"jazzgina stol qatlama, pishgan go'sht, somsa va turli pishiriqlarga to'ldi.

- Urre, uyingda telefon bo'lgani qanday yaxshi xursand bo'lib Noli.

Sherjon bezovta qo'zg'olib qo'ydi. Nazarida yuzlarida ajinlari ko'payib sochlari xurpayib ketganday bo'ldi.

"Tek o'tir, faqat shaharga qilgin". "Yaxshi, Yaxshi...bilaman".

Sherjonning ko'ngli joyiga tushib, Oyshagulga yuzlandi. O'z-o'zidan jilmayardi.

- ...bor edi. Ichasizlarmi... dedi odaticha ming'irlab.

Xotin atroflarini bir oz zajin bosgan chiroyli ko'zlarini unga qadadi.

Va sharaqlab kulib yubordi. Bir qadar o'zini hukmron sezdi. Hashamatdor qasr va so'tak mulozim.

- ...ichasizlarmi emas. Ichamiz.

Sherjon sharpaday sassiz sirg'alib garajga chiqdi. Xotinlarning aroq ichishiga bir oz hayron qoldi. Yoqalari kir bo'lgan ko'ylagini yechib, xo'jayinning allaqanday harflar yozilgan futbolkasini kiydi. Futbolka juda katta bo'lib sal kam tizasiga tushib turardi.

"Katta keldiyov, lekin salqin ekan". Sherjon multfilmlardagi katta etik kiygan mushukchaga o'xshab juda kulguli ahvolga tushgan edi. Bir qo'lida aroq va bir banka tuzlama bilan kirib kelishiga Noli og'zidagi choyni puflab kulib yubordi. Oyshagul ham kuldi, lekin o'zini bosdi.

- Keling aka. Bu kiyimingiz sizga juda yarashibdi. Juda sho'x-da bu qizim. Ishlab o'lib qoladigan bo'lsa ham kulaveradi.

Noli qo'lidagi piyolani arang stolga qo'yib, qornini ushlab kula-kula chiqib ketdi.

- Juda katta ekanmi, o'tgan yillar juda semiz edim, - birdan Sherjon yosh paytidagiday ochilib kulib yubordi.

Epchillik bilan piyolalarga qulqillatib aroq qo'ydi.

- Ikkitagga qo'ying u yosh qiz ichmaydi, - deydi Oyshagul uchinchi piyolani og'zini qo'li bilan berkitib.

- Yaxshi olib yuboraylik, - bir narsaga shoshayotganday. Birinchisini gapirmasdan ichamiz. Tirtim tost. Boring ikkinchisini ham Ayolning yanoqlariga qizillik yugurdi. Sochlarini erkalik bilan orqasiga silkib qo'ydi. Qoraygan yuzidagi oppoq tishlarini yarqiratik kuldi. Lekin uning nozlariga va kulgulariga oftobda qorayib qolgani va qo'pol qo'llari soya solardi. Sherjonning boshi qizib ko'z qirini ayolning bo'liq ko'kraklari tomon tashab qo'yardi.

- Qaerdansizlar? baribir yosh yigitlarday hijolatlangan kuyi dasturxonni o'ynab o'tirardi.

- Quyi Sarpanjadanmiz. Yozda shaharga bir ikki so'm ishlaymiz deb tushgan edik.

Narigi xonadan Noling: "Yana bir yuz ikki yuz ishlaylik boraman" degan ovozi eshiltildi. Xotinning nigohlarida nimadir "yalt etdi". Chalg'itish uchun Sherjonni gapga tortdi.

- Bu yerda ish ham yo'q shekilli...zerikib ham ketsangiz kerak.

Birdan Sherzodning uy egasi ekanligi esidan chiqadi.

- U yoq bu yoqni qarayman, boqqa qaragan bo'laman. Uy egasi... uydagilar shanba bozor kunlari chiqib turishadi. Sizlar kelganda endi momoyga telefon qilaman deb turgandim. Tez-tez gaplashib turamiz, - kunlab, yillab suradigan hayollarini chinga aylantirib gapirardi. "Uff...nega unday dedi".

- Onangiz nechchi yoshda, - deydi ko'pni ko'rgan ayol. Go'yo Olimni uy egasi deb bilgan bo'lib aylantiradi.

- Saksonga - chaynaladi. Onasi nechchiga kirgan edi. Chegara yopilganiga o'n yil bo'ldi. Yaqinlarini o'n yildan buyon ko'rmadi.

Unda hozir nechchiga kirgan ekan. - Qarib qoldilar. Tez-tez gaplashi...ib turaman, - deydi ichidagi hapyollariga qarama-qarshi va birdan to'xtaydi. Bu haqda undan kim so'rayapti. Nega yolg'on gapirayapti.

Birdan ikki g'arib odam o'tirgan davrani, baland shiftli qasrni jaranglatib ko'cha qo'ng'irog'i jaranglaydi. Sherjonning bir soniyada kayfi tarqab, baqadav bo'lib qotib qoladi. Ko'p davralarni ko'rgan ayol kulimsiragan kuyi "kim bo'ldi bemahalda" deydi. "Noli bu yoqqa kel". Narigi xonadan telefonning uzun simlariga cho'lashib qiz yugurib keladi. Olim eshikning olidiga yetib borguncha bir lahzada ichidan qirindi o'tib ketdi. "Kim" dedi bug'ilgan ovozda. Balki uning yuragi umrida birinchi marotaba shunday tez urayotgandir. Qon bosimi ham rekord darajalarni ko'rsatgandir. Nazarida darvoza oldida uy egasi turar, aftidan nimadir aytish esidan chiqqan-u qaytib kelgan, hozir eshikni ochadi. Uy egasi ichkaridagi kasofat xotinlarni ko'radi. Hammasi tamom bo'ladi. Qaerdan ham shularni uya qo'ydi.

Eshikni ochib yubordi. Qarshisida qo'shnisi qo'lida allanarsalar ushlagan kuyi kulib turardi.

- Sherzod aka uxlab qoldingizmi?. Axir janonlarni kirgizib yuborgan edim-ku Sherzodning kir deyishini kutmasdan uni chetlab o'tib ketdi. Yaxshi o'tiribsizlarmi, - ayollar buning istiqboliga o'rnidan turishdi. Aytdim-ku sizlarga Sherjon aka juda yaxshi odam deb. Ana o'zlaringiz ko'rgandirsizlar.

Oyshagul suzilib halatini yoqalarini tuzatgan bo'ldi. Noli ham kelib davrani kuzatganicha dasturxondan u bu chimdinib o'tirardi.

- Sherjon aka bunaqamas-da qaribsiz brat, qaribsiz, - Ayniqsa "qaribsiz" so'ziga urg'u berib, "uy egasi" battar ezildi. Negadir miyasiga hozir eshikdan Oyzoda E'zoz kirib "men Sherjon akani izlab keldim" deganda bormi bular mum tishlab qolishardi.

Mehmonlar zerikib qolibdi, - Chaqqonlik bilan qo'lidagi somsa va boshqa mayda-chuydalarni stolga yoyib, olib kelgan arog'ini "do'q"etib qo'ydi.

- Hozir boraman deb o'zingiz yo'qsiz-ku, - Oyshagul qo'pol va qora yuzlarini noz bilan uchirdi.

- Ish ko'p, ish, - u qulqillatib aroqni piyolalarga bo'lib chiqdi.

"Voy ifloslar u yoqda ishni pishitishgan ekan. Oldin xotinlarni yuborib ketidan o'zi kelgan. Sherjon aka o'zi bir qoravul degan. Voy hezalak, ishton biti...".

- Oldik bo'lmasa, qani Sherjon aka o'zingiz bir narsa deng.

Sherjon aka talmovsirab "mimm" deganicha Yana g'alati ovozlari chiqardi. Shuning barobarida yeli chiqqan pufakdek bujmayib qoldi. Uning ichidan "kelishib qo'yibsizlar-u..." deganga o'xshagan gap chiqdi. Qo'rqqanidan shu gapni ham to'liq aytolmadi.

Qo'shisi mohir artistlarday o'zini orqaga tashlab kuldi. "Eshshak. Xotinini oldida ishtoniga qilgan boladay ishshayadi. Kerilishini qaranglar buni...".

- O'hh...Sher aka hali ...siz ham...- aslida "nahot siz ham shunday gaplarni bilasiz" demoqchi edi. o'zimiz o'yladim, kirib borsam shunday deb o'ylasangiz kerak deb. O'libmanmi aka, ko'chada ikki ayol shunday shunday dedi. Opalar meni ilojim yo'q...Ana Sherjon akaning oldiga boringlar uyi katta dedim. Man unaqa past odam emasman, juda...
Sherjon sal qaddini rosladi. "Aytmabdi-yu... asli tuzuk yigit bu mehnatkash... ammo bir oz mahmadona..." U kulgan bo'ldi. Kulgining o'rniga yuzida qatlanib ketgan ajinlari bir oz qimirlab qo'ydi.
- Oldik bo'lmasa, - qo'lidagini ko'taradi.
Sherjon birdan ichishdan to'xtab piyolada yomon bir narsa ko'rganday qoshini chimiradi.
- Ha aka, - so'raydi jiddiy qo'shni.
- Meniki juda to'la-ku, - Yana ajinlari harakatga keladi.
Demak aroqning ko'pligi unga ma'qul, xotinlarning yonida yo'lga so'rab qo'yapti.
- Endi Sherjonjon aka, - "jon qo'shni" hurmatingiz bor. Uy egasi. -, - oh dayus Sherjonga nima yoqishini bilardi u. ...degan istagancha ichadi. Bizni yo'limizAyshagul. -, - bir oz o'ylanadi "opa"desammi- ni yo'li boshqa...qani oldik yigit o'lmaylik. Uff...yoqadiev...ol senam ...ichlaringni dizenpektsiya qiladi u hammomdan so'ng yanada chiroyi ochilgan Noliga allanechuk g'alati tikilib.
Gap qayoqqa ketayotganini ichgan bo'lsada Oyshagul darov angelaydi:
- Nimasiga ichadi. Yosh bola hali, - deydi bir oz qahr bilan.
Sherjon qari burgutlarday viqor bilan gap nedaligini angelaydi.
- Tek o'tir, - deydi u uy egasilariga xos qat'iyat bilan. og'zim bor deb har narsani gapiraverasanmi...
Qo'shniing qoshi bir oz kerilib yuzi qizaradi. Asta ko'z qiri bilan asta Sherjonga qaraydi.B "Qari to'ng'iz" deb shivirlaydi.
Engashib yutinadi bo'yin tomirlari bo'rtib ketadi.
- Bir og'iz gapingiz, Sherjonboyjon aka, futbolkalarigizdan sizni...qani Dosaev oldik...- deb piyolani chapdastlarcha dasturxonga qo'yadi. U hammaning qo'lga bir-bir somsa tutqizadi.
Barcha somsa yeyishga tutinadi. Noli esa qiziqsinib hamma narsani ushlab ko'radi.
- Yuringlar ikkinchi qavatda bir portret bor. Chin san'at asari...- Sherjon qo'pol qo'llariga "o'hho'..."yo'taladi. bebaho...- uy egasi takrorlaydigan gaplarni esalashga urunib, turishga chog'lanadi.
- E, o'tiring...o'tiring. Hozir buni halollab olaylik, - Oyshagulga sho'xlik bilan ko'zini qisadi.
Yarim shishadan ko'p aroqni Sherjon bilan Oyshagulga bo'ladi. Ayol qo'shnining Sherjonni mast qilish payida ekanligini anglab jilmayadi. Uzun g'amza tortib entikib qo'yadi.
- Qani olamiz so'ng san'at asarini ko'ramiz. Qanaqa rasm o'zi, - deydi u yuqoriga ishora qilib.
Sherjon butkul mast bo'lgan, tillari g'o'ldirab qora va yo'g'on barmoqlarini bigiz qilib nimadir demoqchi bo'ladi. "suvdagi parilar...Oyzoda Kamolga o'h"
- Aaa, - deydi qo'shni. tepada Oyzodaning portreti bor ekan-da. Sherjon aka uning suratlarini ich kissalariga solib yuradi. Avvaliga nos-pos o'rasa kerak. Hojatga olib yuradi desam. Qarab o'tiraman deydi. Hayron qoldim bu odamga. Oyzodaning ko'zlari oldin qora, nega endi ko'k deydi. Ho...hoo...
"Momoyga telefon... pari... ahmoqlar men Sherman" uning qalin lablari endi so'zsiz pichillab kuvacha bo'lar yoki yoyilib ketardi. Yuzidagi qatlanib yotgan ajinlari ham tekislanib ketganga o'xshardi.
Qo'shni yuqoriga chiqayotgan vaqtida bir pas pichirlashdan ham to'xtagan Sherjonga tikilib turadi.
- Holingiz shu ekan-u, ho'jayinlik qilishiga o'laymi, Yana Shermish bog'log'liq qo'y bu Sher emas, chuldirvaqi qoravul. Aysha anovini qara...kallasi yarimmi deymen. Kiygan futbolkasini qara
Sherjon dunyodan bexabar chalaqanchasiga yotib uxlardi. U ichganligi uchun qiynalib nafas olar, har nafas olganida ko'kragi ko'tarilib "Ho'r-ho'r...hiy...hiy" degan turli ovozlari chiqarardi. Qari va begona erkakning uxlashi juda xunuk edi. Ikkalasi yetaklashib marmar zinalarni shipillatib bosib yuqoriga ko'tarilib ketishadi.B "Voy qo'ying" deydi Oyshagul nozlanib. Noli huddi shuni kutib turganday telefonni ko'tarib narigi xonaga o'tadi. Telefon apparatiga Sherjonning o'n yildan beri onasiga aytomagan gaplari qamalib qoladi." Olimboy bo'talog'im nega jimsan". "Ish ko'p opa, narhlar ham qimmatlab ketdi". Telefonlarning Toshhovuzgacha cho'zilib ketgan simlarida "bolam yo'llaringga ko'z tikib ko'zdan qoldim. Bir og'iz sog'man deb telefon qilsang bo'lardi-ku. Hey bolama, onalar uchun bola saksonga kirsam ham bola bo'lib qolaveradi. Endi shoshmay kelsang ham bo'ladi. Yorum' dunyoni tark etganimga yetti oy bo'ldi ...sen bilan oxirtda ko'rishamiz bolam...".
Telefon shig'illaydi, turli xil tillardagi tushunarsiz so'zlar yangraydi. Ona bolaning munosabati telefonga aylanadi. Baland past, erkak va xotin tinmay gapiraveradi. Dunyo telefonga aylanadi. Bir oz vaqtgacha Oyshagulning istig'noga to'la ovozi eshilib turdi. "Qo'ying anovi eshitadi. Egasi qaytib kelsa-chi...". "Kelib ketdi...Dasaev tullagan sherni aytasanmi... ertaga peshingacha qotadi. Yetmishiga chiqqan odam." Bir oz o'tgandan so'ng hamma yoq suv quyganday jimib qoldi. Ahyon-ahyonda narigi xonaning eshigini yopib olgan Nolinig pichirlagan kuyi ovozi eshitaladi. "Oyshagul ham jonimga tegdi. Eri uyida yotibdimi haliyam ichib... buyam eridan qolishmaydi. Hozir ham bir Shrek deganning uyidaHa...ha o'sha mulfilmdagi Shreknig o'zi faqat ahmoqona quloqlar yetishmaydi. Enamning yo'tali bosildimi?. Bug'doydi o'rdinglarmi... Endi bunday ayrilmasam bo'lmaydi. Mayli anovi Shrek uyg'onib qolmasin. Mejdegorodniy qilma deyishgandi". Sherjon toshday qotib uhlardi. Qulog'iga suvning shovurlari va qizlar kulgusining jarangi va kumushrang otlarining kishnagani eshitaladi. Junbushga kelgan otlar qahr bilan suratlardan sakrab tushishadi. Oyzodaning moviy ko'zlari boshi uzra yulduz misol porlaydi. "Oyzoda keling endi"... deydi u. Ilonchalar ko'payib ochlikdan vannaning har tarafga o'rmlaydi. Allaqerda telefon uzluksiz jiringlaydi. Suratdagi parilar ham chiqib kelishadi. Shoyi ko'ylaklarini "shitir-shitir" etib Sherjoning yonidan o'tishadi. "Tura-tura charchadik" deyishadi. Bir mahal bog'lardagi suvi sachraydi. Sherjonning tosh bitgan quloqlari va ko'zi ochiladi.
"Nega eshik ochiq. Telefon apparatiga to'g'ri qo'yilmabdi. Kim gaplashdi. Kim?.." Eshik oldida xo'jayinning katta xotini va nevara-chevaralari hayvonot bog'ida g'alati mahluqotga duch kelib qolganday qizil futbolkali qasrda yolg'iz o'zi uhlab yotgan dev odamga tikilib turishardi. "Hayf sizga. Qariganda imonini yo'qotgan odam". Sherjonning yalt etib ochilib ketgan ko'zlari telefon apparatiga tushadi. Apparat qafasiga qamalib qolgan so'zlar o'zini har yoqqa uradi. "Men odammasman uka. O'n yilda telefon qilmadim. Telefon peshonamda turgan edi. Men odammasman ona...". U imillab o'rnidan turadi. Qalbida yig'iga o'xshagan armonli bir tuyg'u paydo bo'ladi. Bo'g'zi ulkan qayg'udan kuyib ko'zlariga yosh keladi. Endi hech qachon qo'shni mamlakatga qo'ng'iroq qilolmasligini angelaydi.

This is not registered version of TotalDocConverter
Toshkent, O'zbekiston Respublikasi, 2006-yil, 1-ijr.